

## ISAJON SULTONNING “ QISMAT” HIKOYASI BADIY TAHLILI VA UNDAGI RAMZIY TIMSOLLAR

**Ruzmurodova Rayhona**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*

*Filologiya va tillarni o‘qitish : o‘zbek tili*

*Ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada dunyo adabiyotida o‘zining betakror asarlari bilan shuhrat qozongan ijodlordan biri Isajon Sultonning “Qismat” hikoyasida otaning xarakteri, o‘z otasiga qilgan zulmi uchun taqdiriga yozilgan qismati, ichki milliylik tuyg‘usi va voqealar tizimi haqida atroflicha fikir yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** *Ekspozitsiya, sujet, konflikt, kompozitsiya, obraz, badiiy tasvir va ifoda vositalari.*

**KIRISH:** Hikoyada kenja o‘g‘il obrazi va baliq timsoli tasvirlangan. Kenja o‘g‘il obrazi o‘zining samimiyligi va oqko‘ngilligi bilan kitobxon qalbida joy olishga ulgurgan. Baliq timsoli jim va sokinligi, har xil rangda tovlanishi bir insonning xarakterini yaqqol ko‘rsatib bergan.

Yozuvchi Isajon Sultonning “Qismat” hikoyasi AQSHning Chikago shaxrida chop etiladigan “Leksikon” adabiy jurnali tanlovida g‘olib chiqqan.

Taniqli o‘zbek yozuvchisi va adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdam Isajon Sulton haqida shunday yozgan edi: “...Ulug‘ ijod yo‘li anchagina o‘ziga xos. Yozuvchi 90-yillarning boshlarida mo‘jazgina kitobchasi – “Oydinbuloq” bilan ko‘zga tashlanib, adabiy davirlarni o‘ziga bir qaratib olgach hayot deb atalgan tubsiz va cheksiz teranliklarga sho‘ng‘ib ketgan bo‘yi 2010-yilda qator hikoyalar va romanlari bilan u ummondan bosh ko‘targan ijodkordir”[2]. Yozuvchi Isajon Sulton hikoyalari o‘ziga xos uslubga ega.

Hikoya shunday jumla bilan boshlanadi “Ayvon. Ustunlar vaqt o‘tishi bilan to‘q jigarrang-qoramtir tus olib, uzinasiga yorilgan. Ba‘zi yoriqlarida mayda chumolilar o‘rmlashadi...”[3]. Hikoya ekspozitsiyadan boshlangan ya‘ni atrofni, tabiatni, va erta tongdan inlaridan qo‘zg‘algan hashorotlarni tasvirlash orqali ifoda etilgan. Hikoyada ayvon ustumlari vaqt o‘tishi bilan yorilganligi va uning yoriq chiziqlari orasiga arilar in qurishi, ertalab hali nam ko‘tarilmasi arilarning g‘o‘n‘illashi bo‘g‘iq va past bo‘lishi, qanoti qurigan ari zirillagan ovoz chiqarib uchishi bunday tasvirlarni inson hayotiga o‘xshash holatda tasvirlagan desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Inson ham yoshi

o'tgan sari kuch -quvvatdan qoladi. Navqiron o'smirlilik davrida ovozi baland va yoqimli eshitilsa, keksaygan sari pasayib bora-bora chiqmay qolishi ham mumkin.

**MUHOKAMALAR VA NATIJALAR:** Hikoyada bir otaning uch o'g'li bo'lib, ular bir voqeaga uch xil yondashadilar. Kenja o'g'li tabiatni ko'proq yoqtiradi. U ko'proq dalada yuradi. Keng dala, dalaning adog'ida zovur bor. Zovurning suvi bahorda loyqa tus oladi, yozda shaffof, kuzda esa zangor- moviy tusga kiradi, sokinlashadi.

Gap ana shu zovur haqida boradi. Aniqrog'i kenja o'g'il ko'rgan ajoyibot haqida. U yerda bir baliq bor. Bu baliqdan bir Xudo, bir kenja o'g'il xabardor bo'ladi. Zovurga u qanday kelib qoldi ekan? Qaxramonimizni ushbu savol o'ylantiradi. U shunday o'ylay boshlaydi: "O'tgan kuni chaqqoq chaqqan, momaqaldiroq bo'lgan edi. Aytishlaricha, o'shanda shu yerdan ko'rinib turadigan tog'larning cho'qqilaridagi qoru muzlar ko'chib, qishloqlarni sel olgan edi. Balki, o'shanda kelib qolgandir?"[1]. Qaxramonimiz enasi va katta akasi dalaga ketganida sekin zovur yoniga keladi va baliqni kuzatadi. Baliq turli xil rangda tovlanadi. Hovuz arofida juda ko'p hashorotlar uchub yuradi. Ular hatto, o'z naslidan bo'lgan urug'larini ham paqqos tushurar edi. Ammo, baliq suv betiga chiqqanida hamma jonzotlarning ovozi o'chib ketadi. Hatto kapalaklar ham jim qoladilar. Nega bunday bo'lishi keyin ma'lum bo'ladi.

O'rtancha o'g'il, baliqni Xudo yuborganini undan undan boshqa birov bilmadi. Ukasi uni borligini aytganidan keyin zovur bo'yiga berkitiqcha bir necha marta boradi. Har gal borganida uni ko'radi. U sirli baliq edi. Suv betiga chiqqanida tevarakdagi qurt-u qushlarning ovozi o'chib ketardi. Kichkinaligida enasidan insonlar o'lganidan so'ng nima bo'ladi deb ko'p so'rganida enasi qabrga ko'milishi haqida aytadi. Ruhi biror jonzotlarga ba'zan kapalakka aylanib atrofni tomosha qilib jim qolishini bir- ikki yil oldin aytadi. Enasi kasal bo'lib ko'zlari deyarli ko'rmaydi. Otasining qabrini sel olib ketgan, shuning uchun u otasi shu baliqni ichiga kirib keldimikin deb o'ylaydi. U tush ko'radi tushida bir chol kiradi aka-ukalar ulg'ayganini lekin, enasi qiynalayotganini aytadi. Zovurni yoniga kelib otang shu yerga baliqqa aylanib keladi, akkangga ayt, pishirib enangga bersin, tuzaladi degandi. O'rtancha o'g'il akasiga tushi haqida gapirganida, akasi otasini miltig'i bilan baliqni otib, olib keladi va pishirib enasiga beradi.

Katta o'g'il, yoshligida otasidan qo'rqib yashagan. Otasi qo'pol, bolalarni yomon ko'radigan, ichib kelsa enasini uradigan, oldiga o'g'illari chiqquday bo'lsa tomga otib yuborar edi. Otasi keldi deguncha hammayoq

jim va sokin bo'lib qolar darajada qo'rqardi. Hozir esa baliqni pishirar ekan kuy ota, kuyib o'lgin deya xitob qilardi. Qilgan yomonliklaring uchun tovon to'la, deya ichi nafratini is'zor etadi.

Otasining davrida keksalar namoz o'qishsa o'rniga o'g'illari qamalgan. Shuning uchun ham otasi o'z otasi bilan juda ko'p konflik (psixalogik) duch keladi. Konflik (lotincha-to'qnashuv) deganda badiiy asar personajlarining o'zaro kurashlari qahramonning o'z muhiti bilan ziddiyatlari, shuningdek uning ruhiyatida kechuvchi qarama-qarshiliklar tushuniladi[4]. Otasi o'g'lidan yashirincha masjidga borganida o'g'li ko'rib qoladi. Otasini siltab itarvorganida qamish ko'ziga kirib ketadi. Shunda otasi" lloyo qamishday qurigin" deya qarg'aydi. Shuning uchun ham uni qismat jazolaydi. Nima eksa unmaydi, o'rgan qamishi tugamaydi. Bir mahal kuchli shamol bo'lib dovut ko'triladi. Qamishlarni tomiri bilan sug'urib otibyuboradi. O'ziga "sen baliq bo'l"deya xitob eshitiladi. Kuchli yomg'ir yog'adi va ko 'zini ochganida u o 'zini bir ko 'lmakda ko 'radi. Qarshisida esa qosh -ko'zlari o'ziga o'shqagan bola miltiq ko'tarib turganini ko'radi. O'z otasiga qilgan zulimlari yodiga tushadi bu qismat edi.

**XULOSA:** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak inson qilgan barcha yaxshi va yomon ishlari uchun javob beradi. Qanchalik yomonlik qilmang, qanchalik zulimkor bo'lmang albatta, o'zizga qaytadi. Qismat har bir insonning boshida bordir, faqat u qilgan amallariga qarab yoziladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.T.Boboyev "Adabiyot asoslari" Toshkent: 2001-yil
- 2.D.Quronov "Adabiyotshunoslikka kirish" Toshkent: 2004-yil
- 3.Isajon Sulto "Qismat" hikoyasi 2013-yil